

**JINOYAT QONUNINING HUDUD BO'YICHA AMAL QILISHI
NAZARDA TUTILGAN JINOYAT QONUNI NORMALARINING
RETROSPEKTIV TAHLILI**

Sanetullaeva Muslihimaga Nagmetulla qizi

muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishi davrlarga bo'lgan holda o'rganilgan va shu bilan birga jinoyat qonunining oldingi davrlardagi o'rni va mohiyati keng qamrovli tahlil qilingan. Jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishi bilan bog'liq jinoyat qonuni normalarining tarixi bayon etilgan ushbu maqolada, tadqiqotchilar qidirgan mavzuga doir ko'plab ma'lumotlar topishlari mumkin.

Kalit so'zlar: jinoyat qonuni, nizom, mustaqillik, hudud, SSR Ittifoqi, urf-odat.

**РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ НОРМ УГОЛОВНОГО
ЗАКОНА Б РЕГУЛИРУЮЩИХ ЕГО ДЕЙСТВИЕ В ПРОСТРАНСТВЕ**

Санетуллаева Муслихима Нагметулла кизи

muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Аннотация: в данной статье рассматриваются действие уголовного закона в территориальном разрезе по периодам, а также проведён комплексный анализ места и сущности уголовного закона в предыдущие исторические этапы. В статье, посвящённой истории норм

уголовного закона, регулирующих территориальное действие, исследователи могут найти множество сведений по данной теме.

Ключевые слова: *уголовный закон, устав, независимость, пространство, СССР, обычай.*

RETROSPECTIVE ANALYSIS OF THE CRIMINAL LAW PROVISIONS CONCERNING ITS TERRITORIAL APPLICATION

Sanetullaeva Muslihim Nagmetulla qizi

muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Annotation: *This article examines the application of criminal law in the territorial context across different periods, as well as provides a comprehensive analysis of the place and essence of criminal law in previous historical stages. In the article, dedicated to the history of criminal law norms regulating territorial application, researchers can find extensive information on the given subject.*

Keywords: *criminal law, statute, sovereignty, territory, USSR, custom.*

KIRISH

Ushbu maqolada biz jinoyat qonunining retrospektiv tahlilini amalga oshiramiz, amaldagi va eski normalarni qiyoslash, jinoyat normalarining bosqichma-bosqich rivojlanishi va va eski normalarning hozirgacha yetib kelishi masalalarini ko‘rib chiqamiz. Har bir mavzu, shu qatorda predmetning o‘rganilishi bilan bog‘liq masalalar uning tarixiga borib taqaladi.

Jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishi bilan bog'liq qonun hujjatlarining bir asr mobaynidagi rivojlanish davri besh bosqichga ajratishimiz mumkin:

1) 1922-1926 yillar: RSFSRning 1922-yilgi Jinoyat Kodeksi (Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm XSSRlarda amal qilgan)ning 1-bobi ushbu kodeksning amal qilish doirasiga bag'ishlangan bo'lib 1-4-moddalarni o'z ichiga olgan - 1926 yil 1-iyulgacha amalda bo'lgan;

2) 1926-1960 yillar: 1926-yilgi O'zbekiston SSRning birinchi JK 8-9-moddasi – 1960-yil 1-yanvargacha amalda bo'lgan;

3) 1960-1984 yillar: 1960 -yilgi O'zbekiston SSRning JK 5-6-moddasi 1984-yil 1 martgacha amalda bo'lgan;

4) 1984-1995 yillar: O'zbekiston SSR JK- 5-6-moddasi 1984-yil 1-martdan 1995-yil 1-aprelgacha amalda bo'lgan;

5) 1995-yildan hozirgacha: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining - “Kodeksning O'zbekiston hududida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan amal qilishi” - 11-modda, “Kodeksning O'zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan amal qilishi” - 12-moddalari hozirgacha amalda hisoblanadi.

Qadimda mavjud bo'lgan qabilaviy urf-odatlar jinoyat va jazo tushunchalarining dastlabki ko'rinishini shakillangan bo'lib, unga ko'ra, sodir etilgan jinoyatga javoban jamoa ichidagi murosaga asoslangan jazo choralari qo'llanilishi keng tarqalgan edi.

Jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishi yuzasidan retrospektiv tahlil olib boradigan bo'lsak, ushbu jarayon bizning hududda mavjud bo'lgan politik rejimni o'rganish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq hisoblanadi.

O'zbekiston hududida qadimdan turli davlatlar mavjud bo'lib, ularning har biri turlicha qonunchilik tizimga ega bo'lgan. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi tarixiy markazlarda qabul qilingan huquqiy me'yorlar jinoyatga oid masalalarni tartibga solgan. Temur tuzuklari (XIV asr) jinoyat va jazolash tizimi, shuningdek, ijtimoiy tartibni saqlashga doir qoidalarni o'z ichiga olgan edi.

Shariat normalari bilan bir qatorda, chor Rossiyasining jinoyat qonunlari (1845-yildagi axloq tuzatish va jinoiy jazolar haqidagi Nizom va 1903-yildagi Jinoyat qonunlari to'plami); 1867-yildagi Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom loyihasi; 1886-yildagi Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom; Turkiston general-gubernatori chiqargan farmon va qarorlar kabilar jinoyat qonunining manbalari sifatida xizmat qilgan. Turkistonda aniq belgilab qo'yilgan jinoyat qonuni mavjud emas edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1924-yilda SSSR tashkil etilgan va O'zbekiston ittifoqdosh Respublika sifatida SSSR tarkibiga kirgan. 1924-yil 31-oktabr "SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari Asosiy qoidalari" qabul qilingan va unda asosan jinoyat huquqi Umumiy qismining muhim qoidalari keltirilgan. Asosiy qoidalar Umumittifoq qonuni bo'lib, barcha ittifoqdosh respublikalar hududida birdek amal qilishi boshlangan. 1926-yil 16-iyunda O'zbekiston SSRning birinchi Jinoyat kodeksi qabul qilinib, 1926-yil 1-iyuldan amalga kiritildi (Ushbu Kodeks o'sha davrda Tojikiston ASSR da ham amal qilar edi). Ushbu Jinoyat kodeksi Umumiy

va Maxsus qismlardan iborat bo‘lib, Umumiy qismi to‘rt bo‘limdan, Maxsus qismi o‘n bobdan iborat edi. Ushbu kodeks 1924-yil 31-oktabrda qabul qilingan bo‘lib «SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlarining asosiy qoidalarini»ga muvofiq qabul qilinib, umumittifoq qonuni hisoblangan. Mazkur jinoyat qonuni 1960-yil 1-yanvargacha amalda bo‘lgan va asosan mamlakatni, shu davrda mavjud bo‘lgan davlat tuzimini himoya qilishda, o‘sha zamon nuqtai nazaridan olib qaraganda sinfiy dushmanlarga qarshi qaratilgan hisoblanadi. 1958-yil 25-dekabrda Umumittifoq jinoyat qonuni hisoblangan uchta qonun qabul qilingan. Bu qonunlar quydagilar hisoblanadi:

- 1) SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari asoslari;
- 2) Davlatga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik haqidagi qonun;
- 3) Harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik haqidagi qonun.

NATIJALAR

“SSR Ittifoqi va ittifoqdosh Respublikalar jinoyat qonunlari Asoslari” Umumiy qismdan iborat bo‘lib, barcha Ittifoqdosh respublikalar o‘z jinoyat qonunlarini ushbu kodeks asosida ishlab chiqishi lozim bo‘lgan. Qonunga o‘zgartirish va qoshimchalar kiritishga Ittifoqdosh davlatlar haqli emas edi. Ushbu keltirilganlardan tashqari, SSR Ittifoqi manfaatlariga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilovchi, Umumittifoq qonun sifatida SSSR Oliy Sovet Prezidyumining farminlari joriy etilib, ittifoqdosh respublikalar bo‘ylab bir vaqtda va bir xil amal qiladigan, Umumittifoq akti hisoblangan.

1959-yil 21-mayda O'zbekistonning yangi Jinoyat kodeksi qabul qilingan va 1960-yil 1-yanvarda kuchga kirgan bulib, ushbu kodeks yuqorida keltirilgan Umumittifoq qonunlari asosida yaratilgan. Ushbu Kodeks umumiy qismi to'rt bo'limdan iborat bo'lib, ular quydagicha:

1. Jinoyat qonunining umumiy qoidalari;
2. Jinoyat to'g'risida;
3. Jazo to'g'risida;
4. Jazo tayinlash va jazodan ozod qilish to'g'risida.

Mazkur kodeks 1995-yil 1-aprelgacha amalda bo'lgan. Shuni alohida takidlash lozimki, 1926-yil qabul qilingan Kodeksda analogiyadan foydalanilgan, O'zbekistonning 1956-yil 21-mayda qabul qilingan Jinoyat qonunida analogiyadan tamoman voz kechilgan, biz bilamizki hozirgacha bu norma amal qiladi.

Yirik rus kriminolog olimi V.V. Luneevning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning 60-yillarida sobiq Sovet davlatida g'araz maqsadlarda sodir etiladigan jinoyatlar 40-45 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1989-yil bu ko'rsatkich 70 foizga ko'tarildi.

MUHOKAMA

O'zbekiston mustaqilligidan so'ng yangi qonunlarini ishlab chiqish va qabul qilish boshlandi. 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi barcha soxa, shu jumladan yangi Jinoyat Kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish uchun to'la sharoit yaratib berdi. 1994-yil 22-sentabrda mustaqil O'zbekistonning birinchi Jinoyat qonuni qabul qilinib,

1995-yil 1-apreldan kuchga kirdi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 127 yil qaramlikdan keyin birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi qabul qilingan.

O'zbekistonning 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Jinoyat qonunida, ushbu qonunning hudud bo'yicha amal qilishi bilan bog'liq masala oldingi Kodeks bilan solishtirganda keng va to'laroq ifodalangan. Jinoyat Kodeksi II bobi, 11, 12-moddalari kodeksning hudud bo'yicha amal qilishi doirasi belgilangan bo'lib, 11-modda O'zbekiston hududida sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoyat qonunining amal qilishi, 12-maddada esa, O'zbekiston hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoyat qonunining amal qilishi ifodalangan. Mazkur jinoyat Kodeksining avvalgi qonunlardan farqli jihatlari bo'lib, ular quydagicha:

- Ushbu qonunda uning amal qilishi bo'yicha konkret normalar ko'rsatilgan bo'lib, mustaqil O'zbekiston uchun amal qilgan;

- Amaldagi jinoyat Kodeksi 11-modda ikkinchi qismi normalari kiritilgan, ya'ni, Jinoyat qonunining O'zbekiston hududida amal qilish mezinlari belgilangan;

- O'zbekiston bayrog'i ostidagi yoki O'zbekiston portida ro'yxatga olingan havo, dengiz yoki daryo kemasida O'zbekiston hududidan tashqarida bo'lib, chet el davlati hududi hisoblanmagan joyda jinoyat sodir etilsa, bunday jinoyat uchun ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortilishi haqida muayyan normalar kiritilgan;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, basharti boshqa davlat hududida sodir

etgan jinoyat uchun o'sha davlat sudining hukmi bilan jazolangan bo'lmасalar, ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortilishi haqida norma mustahkamlandi. Bu bilan jazoning muqarrarlighi prinsipining mohiyati ifoda etildi;

- Ekstraditsiya bo'yicha qoidalar quyidagicha ifodalangan: "O'zbekiston fuqarosi chet el davlati hududida sodir etgan jinoyati uchun, agar xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, ushlab berilishi mumkin emas".

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Jinoyat qonunining tarixi juda murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi, shuni hisobga olgan holda Jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishi bilan bog'liq qonun hujjatlarining bir asr mobaynidagi rivojlanish davri bosqichlarga bo'lgan holda o'rganish va tahlil qilish lozim deya hisoblaymiz. Biz ushbu davrni besh bosqichga ajratgan holda ishimizga kiritganmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
2. Kabulov R, Otajonov A.A. va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik. O'zbekiston IIV akademiyasi. 2012.
3. Основы Уголовного законодательства Союза ССР и Союзных Республик. // Ведомости Верховного Совета СССР, 1959 год
4. Закон об уголовной ответственности за государственные преступления. // Ведомости Верховного Совета СССР, 1959 год
5. Закон об уголовной ответственности за воинские преступления. // Ведомости Верховного Совета СССР, 1959 год

6. Лунеев В.В. Преступность в СССР. Основные тенденции и закономерность. // Советское государство и право